

PAST NAVDAGI CHIGITLI PAXTANI G‘ARAMLASH VA SAQLASHDAN OLDIN TOZALASH JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISH

Azizbek Raximjonov

Farg‘ona Politexnika instituti assistenti

Nigoraxon Umaraliyeva

Farg‘ona Politexnika instituti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada paxtani tayyorlash va saqlashda joriy qilinayotgan texnikalarni xom ashyo sifatiga ta’sirini tadqiq qilish muammolarni o’rganish va ularga tegishli yechim topish uchun yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilish bo’yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: tozalash, samaradorlik, klaster, g‘aram, iflos aralashmalar.

Kirish

Paxta tozalash, to‘qimachilik va yengil sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilayotgan paxta tolasi va uning mahsulotlarining sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lishi, dunyo standartlari talablariga javob berishi ularning jahonda bozorida xaridorgir bo‘lishining asosiy omilidir [1,2].

Shunga asosan paxta xomashyosini qabul qilish, saqlash, tashish va qayta ishlash, ekiladigan urug‘lik chigitni tayyorlash bo’yicha ishlarning butun kompleksini tashkil etish va amalga oshirish, xalqaro standartlar talablariga javob beradigan yuqori sifatli paxta mahsulotini tayyorlash bo’yicha zamonaviy yuqori unumli uskunalar va ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy qilish, paxta-to‘qimachilik klasterlari tizimida faoliyatni amalga oshirish, ilmiy-texnik va tajriba-eksperimental tadqiqotlarni rivojlantirish, sohaga innovasion g‘oya, ishlanma va texnologiyalarni joriy etilmoqda [3,4,5].

Paxtani yetishtirish, hosilini terib olish, tashish, g‘aramlash va uni saqlash, undan tashqari chigitli paxtani qayta ishlash jarayonlaridan ma’lumki, mexanizatsiya vositalarining yetarli darajada takomillashmaganligi, ayniqsa, noqulay ob-havo sharoitida paxta tayyorlov punktlarida hamda paxta tozalash korxonalarida ayrim

hollarda noto‘g‘ri texnologik rejim hamda uskunalarni tanlanishi oqibatida tolaning tabiiy sifat xususiyatlariga sezilarli darajada shikast yetkazadi. Paxtani ochiq va yopiq omborga uzatish va taqsimlash jarayonida uni ombor yuzasi bo‘yicha notekis taqsimlanishi tufayli paxta qatlamlarida zichlikning notekis miqdorda bo‘lishiga ham olib keladi [6,7,8].


Asosiy qism

Paxtani tayyorlash va saqlashda sifatiga ta‘sir qiluvchi biologik va mexanik omillarni o‘rganish asosiy hamda kechiktirib bo‘lmas masalalardan biri hisoblanib, g‘o‘za kasalliklarini oldini olishda zamonaviy usullardan foydalanish, tayyorlov punktida paxtani qabul qilish va saqlash qoidalari, undan tashqari paxta xomashyosini qabul qilish va texnologik jarayonlarni boshqarishni avtomatlashtirish lozimdir [9,10].

Shu kungacha chigitli paxtani tayyorlash va saqlashda sifatiga ta‘sir qiluvchi biologik va mexanik omillarni yetarli darajada o‘rganilmagan. Jumladan hozirda paxtani terishga mo‘ljallangan kombaynlar sekin asta mamlakatimizga kirib kelmoqda. Bu esa turli xil afzallik va kamchiliklarga ega. Masalan, mashina terim turini o‘rganilganda paxtaning tarkibida iflosliklarning ortib ketishi, namlikning yuqoriligi va chigit va toladagi nuqsonlarning birmuncha ortishi kuzatildi. Bu holat tola sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Chigitli paxtani g‘aramlash jarayonida esa g‘aramdagi paxtani qizishiga, iflosliklarning aktivlashib ketishiga, ishlab chiqarish jarayonida esa tozalash samaradorligining pasayishiga olib keladi. Shu sababli tayyorlov punktida paxtani qabul qilish va saqlashda sifatiga ta‘sir qiluvchi biologik va mexanik omillar o‘rganilishi zarur. Paxta tozalash korxonalarida tozalashda ishlatiladigan birmuncha uskunalarni mavjud bo‘lib ularning barchasi ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladi. Bunga misol chigitli paxtani yirik iflosliklardan tozalovchi ChX-3M2 uskunasi [11,12].

Research Science and
Innovation House






1-ta'minlovchi valiklar; 2-titkilovchi-tozalagich baraban; 3-to'rli sirt (yuza); 4-arrali baraban; 5-cho'tkali baraban; 6-qo'zg'almas cho'tka; 7-kolosnikli panjara; 8-arrali regenerasion seksiya; 9-qiya tekislik; 10-asos (korpus).

1-rasm. CHX-3M2 rusumli paxtani yirik iflosliklardan tozalagichning texnologik sxemasi

Tayyorlov maskanlarida paxtani g'aram va omborga joylashning amaldagi texnologik jarayoni:




Ushbu muammolar ko'rib chiqilib, paxta tozalash mashinalarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi CHXM – rusumli paxta tozalash mashinasi tavsiya qilindi. Ushbu uskuna platforma holatida tayyorlangan bo'lib bir joydan ikkinchi joyga ko'chirib o'tish mumkin. Uskunaning texnologik sxemasi va qo'llanishi quyidagi sxemada ko'rsatilgan.

Tayyorlov maskanlarida paxtani g'aram va omborga joylash uchun tavsiya qilinayotgan texnologik jarayoni:



1. XPP rusumli ta'minlagich;
2. Paxtatozalagich;
3. TL rusumli lentali transportyor;
4. G'aram yoki ombor;

Paxta tozalash texnologik mashinalarining tuzilishi va ishlashi o'rganilib, paxta tozalash korxonasi texnologik mashinalar ketma-ketligi tahlil qilingan. Ushbu paxta tozalagichda paxta tarkibidagi iflosliklarga qarab - 1, 2 va 3ta arrachali barabanlarni ishlatilishi hisobiga mahsulot sifatini saqlash va energiya tejamkorligi ta'minlaydi. Shu bilan birga tozalagichdagi qoziqchali-plankali barabanlar o'rnatilgan bo'lib, mashinaning tozalash samaradorligini oshiradi.



1-ta'minlovchi valik; 2-qoziqchali baraban; 3-to'rli yuza; 4-arrachali baraban; 5-kolosnikli panjara; 6-chyotkali baraban; 7-chiqindi shnegi; 8-lentali transportyor; 9-yopishtiruvchi chyotka; 10-chiqindi novlari; 11-lyuk; 12-katta lyuk; 13-planka; 14-soplo.

1-rasm. Takomillashgan tozalash mashinasi.



Xulosa

Chigitli paxtani qayta ishlash jarayonida olinayotgan asosiy maxsulot tolaning sifat ko'rsatgichlari uning narxiga ta'sir qiluvchi asosiy omil hisoblanadi. Chigitli paxtani jinlashgacha bo'lgan texnologik jarayonlar tola sifatini belgilaydi. Optimal tozalash rejimlarining tanlanishi albatta tolada bo'lgan fizik-mexanik kuchlanishlarni miqdorini kamaytiradi. Natijada olinayotgan maxsulotimizning sifati yaxshilanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Raximjonov. (2023). Paxtani tayyorlash va saqlashda joriy qilinayotgan texnikalarni xom ashyo sifatiga ta'sirini tadqiq qilish. Monografiya. Toshkent.
2. Rakhimjonov, A. (2022). The dependence of yarn density on spinning systems and quality indicators.
3. Rakhimjonov, A., & Bakhtiyorova, U. (2023). Promoting The Development Of Improved Cleaning Technology. Eurasian Journal of Engineering and Technology, 17, 44-47.
4. Salimov, A., Khusanova, S., Salimov, O., Toshtemirov, Q., Yakubov, N., & Rakhimjanov, A. (2022). Research of The Process of Preparation and Storage of Raw Cotton. Journal of Optoelectronics Laser, 41(7), 612-618.
5. Tursunova, X. S., & Rahmatovna, M. S. (2020). Ayollar paltosi uchun gazlamalar taxlili. In 3 rd international congress of the human and social science researches (itobiad).
6. Husanqizi, S. M., Ubaydulloyevna, Y. D., & Valiyevich, H. J. (2021). Analysis of the development of older women's clothing of different subcultures (On the example of muslim women's clothing). Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 377-381.
7. Ulugboboyeva, M. M., & Tursunova, X. S. (2021). Ways to solve problems in the production of knit wear. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 29-33.
8. O'g'li, T. U. D. U., & Qizi, B. M. N. (2022). Verification of the values obtained based on the theoretical analysis of the working details of the crusher in the program "Solidworks". ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(10), 222-229.

9. Ulugboboyeva, M. M., & Tursunova, X. S. (2021). Ways to solve problems in the production of knit wear. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 29-33.
10. Ergashov, Y., Babayeva, M., & Akhmedov, A. (2023). New regenerator design for regeneration of raw cotton voles from non-ginned seeds. *Academia Science Repository*, 4(04), 32-35.
11. Sharipjanovich, S. O. Umarali og, TD, & Qizi, BMN (2021). Current State And Analysis Of Equipment For Cleaning And Selection Of Seeds. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 29(2), 337-342.
12. Maripdjanovna, U. B. M., & Valiyevich, X. J. (2021). Research and analysis of physical and mechanical properties of the national fabric-adras. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(12), 77-88.



Research Science and
Innovation House

